

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHILARGA QO'YILGAN TALABLAR

*Farxodova Dilnoza Qudrat qizi
Buxoro davlat universitetining*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada “Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasining” ahamiyati va ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda o'quvchilarning o'qish va tushunish darajasini oshirish yuzasidan fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, ta'lim mazmuni, zamonaviy yondashuvlar, bilish, kompetensiya, o'qish va tushunish darajasi, o'qish savodxonligi.

Аннотация: в данной статье рассматривается значение «Концепции начального образования» и современных подходов к содержанию образования, а также повышению уровня чтения и понимания учащихся.

Ключевые слова: концепция начального образования, содержание образования, современные подходы, знания, компетентность, уровень чтения и понимания, читательская грамотность.

Abstract: this article discusses the importance of the «Concept of Primary Education» and modern approaches to the content of education, as well as raising the level of reading and understanding of students.

Key words: Concept of primary education, content of education, modern approaches, knowledge, competence, level of reading and understanding, reading literacy.

Kirish. Mamlakatimiz kelajagi porloq, iqtisodiy-siyosiy salohiyati, ilmiy-texnik taraqqiyoti barqaror, jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishi uchun, unga hozirdanoq tamal toshi (poydevor) qurib borish lozim. Ana shunday buyuk maqsadnini ijobiy hal qilish va amalga oshirishda o'qituvchilar, ya'ni ziyolilar qatlami zimmasiga ulkan vazifalar, qator mas'uliyatlar yuklatiladi. Zero, o'qituvchilar va tarbiyachilar jamoasi kelajakda el-yurt, mamlakat ravnaqi yo'lida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni yetishtirib beruvchi muhim kadrlar sanaladi. Shu bois ham bunday mas'uliyatli ishga o'qituvchilar doimo shaxsiy mas'uliyat his etib, o'zlarining kasbiy malaka va mahoratlarini oshirib borishlari lozim. Chunki, vaqtning o'tishi muhit, vaziyat, sharoit va nihoyat, insoniyatning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, o'quvchilarning ham qiziqish va ehtiyojlari o'zgaradi. Natijada o'qituvchining ta'lim berish metodikasi, tamoyili, mahorat va malakalari ham o'zgarishi, aslida, oshishi talab etiladi.

Asosiy qism. O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

“... O'qituvchi – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur.” U o'z fikrini davom ettirib: “O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi,” – deb ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani

tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kirolmog'i lozim."

Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "... O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin..."

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar ta'lim sohasida o'qituvchi oldiga yuksak vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy ta'lim o'qituvchidan quyidagi vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'nggi bilimlardan xabardor bo'lib borish, ta'limni pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanib amaldagi o'quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;

- ta'limda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib o'z mahoratini, bilimni va qobiliyatini namoyish etishi;

- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda, ular tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga sharoit yaratish;

- o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv fanlari ning o'zaro aloqadorligini ta'minlash;- ta'limni tarbiyaviy jarayon bilan o'zaro aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;

- o'quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida ta'limning emotsionalligini ta'minlash;
- internet va axborot texnologiyalari asosida fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lib borish;

- ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, fikrlash va faoliyat turlarini boyitish maqsadida ular ruhiyatini doimiy o'rganib borish;

- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat, o'qituvchi aql-idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirrasidir hisoblanadi. Ijodiy kayfiyat - o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari ko'rsatuvchi, o'quvchilar jamoasiga tez kirishib ketishini ta'minlovchi vositadir. O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun psixologik yo'nalishlarning xilma-xil usullarini bilishi kerak. Bu darsni fikran xayoldan o'tkazish va loyihalash, har bir o'quvchi qalbiga oson yo'l topa olish mahorati, muloqot madaniyati. Bolalar bilan bo'lajak muomala oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishida uning o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi o'qituvchining o'rganilayotgan yangi o'quv materialiga nisbatan o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o'qituvchi tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbimi fikran yodga tushirish; ko'zgu oldida takrorlash; namuna sifatida san'at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish.

Ta'lim jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish - o'qituvchi mehnatning eng muhim kasbiy jihatdan talabi bo'lib, u O'qituvchining sinfda, o'quvchilar bilan muomalada erkin bo'lishini, xulq-atvorining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan o'qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlari ajratib ko'rsatish mumkin:

1) O'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqlovchi omil ekanligi.

2) Sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida sodir bo'lishi, o'qituvchi ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

3) O'qituvchining sinf jamoasi bilan muloqoti tizimi, pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

4) O'quvchilar bilan muomaladan qanoat hosil qilish, keyingi pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil ekanligi. Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan har qanday zo'riqishni, shuningdek, boshqa noxush holatlarni yengish uchun o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur. O'z-o'ziga ta'sir qilishning bir qator usullari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir: O'z-o'zini ishlantirish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini majbur qilish, o'z-o'ziga majburiyat yuklash, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini jazolash, o'z-o'zini mashq qildirish, o'z-o'ziga ta'sir qilish. O'qituvchining o'z-o'ziga ta'sir qilishi (refleksiya) va uning samarali jihatlari alohida mavzu asosida o'rganiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublari bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo "Nima uchun o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topishi zarur. Bu javoblar pedagogika fanining asosiy qoidalarini va qonuniyatlariga mos holda talqin qilinishi, shuningdek, ta'lim xususiyatlari e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muhim muammolaridan biri, o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etish shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir. Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham pedagoglarning malakasini oshirishda: - o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish; - ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish; - o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash; - o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublari tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy, deb belgilanadi.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmazligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir:

O'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;

Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajad his etishi;

Olijanoblighi, aql-farosatli, ma'naviy pok;

O'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqattli, bardam, matonatlilikidir.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

Keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

Yosh pedagogik psixiologiya, ijtimoiy psixiologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda makyab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

O'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

Ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

O'z ishiga ijodiy yondashishi'

Bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

Pedagogik taxnikani (mantiq, nutq, ta'limnig ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

O'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishi uchun intilishi kerak.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilddagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorgarligidan dalolat beradi.

Muhim davlat vazifasini – Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati, asosan, amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlana boradi. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur.

Zamonaviy o'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruxiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quvtarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlilik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul, metod va texnologiya tushunchalarining farqlay olishlari, "Aqliy hujum", "Tarmoqlar"(Klaster) "Assesment" metodlari, "Bumerang", "Skarabey", "Charxpalak", "Rezyume" "Keys-stadi" va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axbortni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak

dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Buning uchun u darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz". Darhaqiqat, o'qituvchi, nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan mo'tabar zotdir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin:jamiyat uchun o'qituvchining o'rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bo'lishi kerakki, o'qituvchi – ulkan mas'uliyatli, hur fikrli va o'sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanday talab bo'lsa, unga ham shunchalik qat'iy talab bo'ladi. Ya'ni bilimni bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dolzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o'qituvchining majburiy kasb talabi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008-yil.

O'zbekistonRespublikasining"Kadrlartayyorlashmilliydasturi", Toshkent, 1997-yil

M.Davletshin.Zamonaviymaktabo'qituvchisiningpsixiologiyasi. Toshkent, 2003-yil.

Dilova N.G.(2021). Formativeassessment of student knowledge-as a means of improving the of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5,pp.144-155.

Dilova H.G. (2018) Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3,63-68-b.

WWW. Ziyonet.uz Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya .-T. " Fan va texnologiyalar", 2016.-77-b.